

DRUIDLAR KIMLAR?

Eramizdan avvalgi I asrda G'arbiy Yevropaning deyarli butun hududini band etgan qadimiy qabilalar keltlar yoki gallar deb atalgan. Garchi ularda monarx timsolidagi oliy hukumat, davlatchilik bo'lmasada, ular o'zlarining ma'naviy dohiylari — kohindruidlarga bo'ysinganlar. Kohindruidlar qurbonlik qilish marosimlarini boshqarishar, tabiblik qilishar, solnomalar bitishar, bashorat qilishar, bolalarga saboq berishar, gunoh ish qilgan katta yoshlilarni jazolashar edi. Druidlar sirli-sinoatli ilohiy bilimlarga ega deb hisoblanar va bu ularning kishilar ustidan hukmronlik qilishlariga juda katta imkoniyat berardi. Rim imperatorlari keltlarni o'zlariga bo'ysindirganlaridan keyin, druidlarning ta'siridan xavfsirab, birinchi galda barcha druidlarga xos marosim va udumlarni man qildilar. Druidlarning siru-sinoat, siru-asrorlari hali-hanuz mutaxassislarni qiziqtirib keladi. Biroq ularni o'rganish nihoyatda mushkul. Xo'sh, kohindruidlar tabaqasi haqida nimalar ma'lum?

Ular hayotining aksar qismi o'rmon bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur tabaqaga mansub bo'lish istagidagi da'vogarlar o'rmonlarda yolg'izlik sinovini topshirganlar, bu imtihondan o'tganlari esa yana bir necha yillar muqaddas to'qaylarda saboq olishgan va yashashgan. Kohinlarning aqidasiga ko'ra inson daraxtdan bunyod bo'lgan, va dov-daraxtlarning hayotini yuzaki tushunish yaramaydi, zero ularning hayotida bitmas-tuganmas siru-sinoatlar yashirin. Druidlar har bir o'simlikning o'z ruhi mavjud deb hisoblashgan.

Umuman olganda, o'rmonni o'rganish ta'limoti qadimgi qabilalardan nihoyatda keng qamrov kasb etib, bu ta'limot ilgarigi vaqtlarda butun Yevropaga quloch yoygan edi. Ular daraxtlarga xuddi jonli mavjudot sifatida munosabatda bo'lganlar, ulardan insoniy xislatlarni qidirganlar, hatto «ongli mavjudot» — inson («gomo sapiyens») daraxtlarga tashqi hech bir o'xshashligi yo'qligini bilsalarda, bunga ahamiyat bermaganlar. Druidlar inson o'simliklardan kelib chiqqan, va ayrim odamlar bir umr o'simlikka xos ruhlaridan xoli bo'la olmaydilar degan aqidaga qattiq ishonganlar. Bunday kishlar, ularning nazarida ko'ngilchan odamlar bo'lib, ular odatda tabiatni sevuvchan, osudalikni va qulaylikni qadrlaydilar. Ayrim odamlar esa — hayvoniy ruhga egadirlar. «Hayvoniy ruh» sohiblari sovuqqon, tadbirkor, o'zlarini tabiatdan xoli joylarda erkin sezuvchi, aytaylik shaharda yayrab yashovchi kishilardir. Olimlar, ixtirochilar, inqilobchilar safi asosan ana shular hisobiga to'lib boradi. Xullas, muxtasar qilib aytganda qadimgi kelt-kohinlari tomonidan tuzilgan asosiy qoidalar, boshqacha qilib aytganda «druidlarning tolenomasi» ana shulardan iborat.

BUYUK KARL KIM?

VIII asr boshlarida Yevropa qirolliklari go'yo xavfu-xatarlardan xoli edi. Ammo oradan 100 -yil o'tib hamma narsa o'zgarib ketdi. 711- yilda Vestgot qirolligiga mavrlar (shimoliy Afrika qabilalari) va arablardan iborat musulmon qo'shinlari kirib keldilar. 720- yilga kelib ular vestgotlarni batamom tor-mor qilib,

shak-shubhasiz yana shimol tomonga o'z yurishlarini davom ettirishga tayyorlana boshladilar.

Buyuk Karl 742- yil 2- aprelda dunyoga keldi. U 768- yilda otasi Pakana Pipin (Pipin Korotkiy) vafot etgach, qirol bo'ldi. Karl ko'plab bosqinchilik yurishlari natijasida bir paytda G'arbiy Rim imperiyasiga qarashli bo'lgan juda katta hududlarni o'ziga bo'ysindirdi. Franklar hukmdori Karl o'z hokimiyatini yana tobora janub tomonga qarata kengaytirib bordi. 732- yilda Fransiyaning janubidagi Tur va Puatye hududlari oraligida uning askarlari Ispaniyadagi musulmonlar hukmdori Abdur-Rahmon lashkari bilan jangda ro'baro' keldi. Mavrlar bu jangda mag'lub bo'ldilar, hukmdorlari esa halok bo'ldi. Shunday qilib mavrlarning G'arbiy Yevropa tomon qilayotgan yurishlariga barham berildi. Karl shundan so'ng Martell, ya'ni «bolga» laqabini oldi. 800- yilda Rimda juda ko'p xalqlar to'plangan yig'inda, tantanali diniy-ruhoniy marosimlardan so'ng franklar qiroli imperator deb e'lon qilindi. Mazkur marosimga rahnamolik qilgan Papa Lev III yangi imperator davrida qaror topgan cherkov va hokimiyat o'rtasidagi iliq va yaqin munosabatlardan benihoya mamnunligini izhor qildi.

O'zining hadsiz-hududsiz, katta imperiyasida tartib o'rnatish uchun Buyuk Karl imperiyani grafliklarga bo'ldi va mazkur grafliklarni uning vakillari bo'lmish graflar idora qila boshladi. Nihoyatda muhim masalalarni muhokama qilish uchun imperator yiliga ikki marotaba xalq yig'inlarini chaqirardi. Biroq u o'zining eng ishonchli va sadoqatli tayanchi deb katoliklar cherkovini bilar va ushbu cherkovga xilma xil imtiyozlarni bergan edi.

Buyuk Karl — ilk o'rta asrning eng yorqin shaxsidir. Uning faol aqlu zakosi, aql bovar qilmas jismoniy kuch-qudrati va jo'shqin g'ayrat-shijoati o'z zamondoshlarini hamisha hayratga solardi. Imperator hamisha yelib-yugurib yurar, ko'plab xayrli ishlarga shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lardi. O'ta suronli zamonda yashagan bo'lishiga qaramasdan, hayotda ilm-ma'rifatning, madaniyat va maorifning ahamiyati beqiyosligini juda yaxshi anglardi. Uning hukmronligi davrida ochilgan yangi maktablarning soni benihoya ko'p edi. Uning o'spirinligida olgan ta'limi asosan jismoniy qudratini rivojlantirishga, otda yurishga va jangovar san'atlarni egallashga yo'naltirilgan edi. Imperator biror hujjatga imzo chekishiga to'g'ri kelganida, uning o'rniga maxsus hattot Karlning ismidan iborat monogrammani harflab yozib qo'yar, Karl esa o'z ismidagi «A» harfi ustiga chiziqcha tortardi xolos. Biroq, shunday bo'lsada, u tabiatan juda qiziquvchan, o'ta xotirasi kuchli inson edi, u o'z davrining yetuk allomalari bilan muomala qilish jarayonida muttasil o'z bilim doirasini kengaytirib borardi. Umuman olganda, savodsiz bo'lsada, imperator o'zidagi har tomonlama rivojlangan fahmu zakovati bilan atrofida gilarni hayratga solar va mohiyatan olganda o'sha davrning eng o'qimishli kishilaridan biri sanalardi.

Biroq Karl 814- yil 28- yanvarda Axenada vafot etdi. Tarixda juda ko'p bo'lgani kabi, uning vafotidan keyin ham buyuk inson — Karlning o'rniga iste'dodsiz merosxo'rlar hokimiyat tepasiga keldi va nihoyatda ulkan, ko'plab qabilalardan tarkib topgan imperiya tez orada parchalanib ketdi.

BUYUK KARLNING MAMLAKATI QANDA Y EDI?

Karl o'zining zabt etuvchi yurishlarini davom ettirdi, biroq u zobitlik bilan birga missionerlik faoliyatini ham qo'shib olib borardi, ammo uning bu faoliyati o'ta qattiq qo'llik bilan amalga oshirilardi. Shimoliy Germaniyada Britaniyaga ko'chib o'tishni xohlamagan sakslar yashashardi. Karl ularni o'ziga bo'ysindirib nasroniylikni qabul qildirdi. Janubda Karl mavrlardan Ispaniyaning shimolini tortib oldi, biroq bungacha uning Ronseval (Pireneyada) darasidagi janglarida eng yetakchi sarkardasi Roland halok bo'lishiga to'g'ri keldi. Ushbu voqeya tez orada juda ko'p qo'shiq va afsonalarga mavzu bo'ldi.

800- yilga kelib Karl endi franklarning butun yerlari, Germaniyaning g'arbiy qismi va Shimoliy Italiyaga hukmronlik qilardi. Franklarning qiroli Karl, endilikda qayta tiklangan Rim imperiyasining hukmdori qiroli Buyuk Karl edi. Buyuk Karl zamonasida G'arbiy Yevropada franklar hukmronlik qildilar. Imperator har tomonlama cherkovni qo'llab-quvvatlar, uning yordamida esa fan va maorifni jonlantirishga urinardi. Uning saroyida hamisha mamlakatdagi u saroydan bu saroyga ko'chib ma'rifat tarqatib yuruvchi alloma rohiblar bo'lardi, masalan ular orasida anglosaks alloma Alkuinni yoki vestgotlik shoir Teodulfni uchratish mumkin edi. Garchand Karlning o'zi shaxsan yozishni bilmasada, biroq lotinchani va yunon tilini tushuna olardi. Aynan Buyuk Karl birinchi bo'lib o'zining qo'l ostidagilar uchun qonunlarni to'plashni va ularni alohida tarzda yozib qo'yishni joriy etgan.

ANGLIYANING BIRINCHI HUKMDORI KIM BO'LGAN?

Biz nimagadir Britaniya hamisha Yevropaning bir qismi bo'lgan degan mulohazaga ko'nikib qolganmiz. Biroq, aslida sira ham bunday emas. U eramizdan avvalgi I asrga qadar Yevropaga qarashli emasdi. Rimliklar Britaniyani bosib olishgan va u haqda Yevropada hech kim bilmasdi ham. Britaniyaning bu davrdagi tarixi haqida biz juda kam bilamiz.

Birinchi bosib olingan davrda bu yerda istiqomat qiluvchi aholi «brittlar» deb atalardi. Ular kelt shevasining turli lahjalarida so'zlashishar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishar, poda va otvoqarlik qilishardi. Temirdan turli jihozlar va qurollar yasashni ham bilishardi. Ularning aksariyati katta-katta qishloqlarda tomi qamish bilan yopilgan chaylalarda istiqomat qilishgan. Aynan rimliklar bu yerlarda shaharlarni va ularni bir-biri bilan tutashtiruvchi yo'llarni bunyod etishgan. XV asr boshlarida bu yerlarni rimliklar tark etgach bu yer aholisi zaiflashib xarob ahvolda qoldi. Angllar, sakslar va yutlarning lashkar (o'rda)lari Daniyadan va Reyn bo'yida yastanib yotgan yerlardan jo'nab ketdilar. Faqat bu yerda angllar muqim o'rnashib qolganlaridan keyingina mamlakat «Angliya» nomini oldi.

Kichik-kichik va qiyin ahvolda qolgan qabilalarning birlashishi natijasida yettita qirollik qad rostladi va Angliyada muqimlik kasb etdi. Bu yerlarning ilk egalari brittlar Uels va Shotlandiyaning baland tog'li hududlariga siqib chiqarildi.

Mazkur yetti qirollik «Geptarxiya» yoki anglosakslarning yetti davlati Ittifoqi deb atalardi. IX asrga kelib ular Egbert rahbarligi ostida birlashtirildi va Egbert Angliyaning birinchi qirol bo'ldi. Bu paytga kelib Angliya nasroniy dinini qabul qilgan va buning oqibatida u Yevropa qit'asidagi barcha mamlakatlar bilan hammaslakka aylangan edi.

Qirol Buyuk Alfred davrida Angliya yana daniyaliklarning qaqshatqich bosqinlariga qarshi kurashishiga to'g'ri keldi. Bu hol to XI asrgacha, ya'ni mamlakat Daniya qirol Kanut hokimiyatiga tobe bo'lguncha davom etdi.

Keyinchalik taxtga anglosaksoniyalik qirol Eduard (Ispovednik) Iqrorgo'y keldi va uning davrida mamlakat 23- yil tinch va osoyishta hayot kechirdi. Uning o'limidan keyin yana qirg'inbarot boshlanib ketdi. Toj-taxt uchun kurashlarda kim uning merosxo'ri bo'ladi degan masala hal etilardi. Nihoyat 1066- yilda normandiyalik gersog Vilgelm Angliyani bosib oldi, keyinroq esa qirol deb e'lon qilindi. Angliyaning normannlar tomonidan zabt etilishi mamlakat hayotini shu qadar o'zgartirib yubordiki, ma'lum ma'noda bundan keyingi voqyealarni Angliya tarixining yangi davri deb atash mumkin.

SHIMOLIY DENGIZ QAROQCHILARI KIMLAR?

Angllar va sakslar Rim imperiyasini bosib olganlaridan 500-yil o'tib bu imperiyaga (biroq, endilikda u franklar imperiyasi deb atalardi) yana boshqa shimoliy qabilalar hujum qildilar. Bu bosqinchi majusiylar nasroniylar zaminini taladilar va vayron qildilar. Tarix takrorlandi. Bu galgi bosqinchilar Norvegiya va daniyadan edilar, ularni normannlar yoki vikinglar deb atashardi. (G'arbiy Yevropada ularni asosan normannlar — shimol odamlari deyishardi). Odatda vikinglar haqida gap ketganda shoxdor dubulg'a kiygan, yo'lida duch kelgan narsani vayron qilib ketuvchi yovvoyi odamlarni tasavvur qilishadi. Bu juda maroqli tasavvur, ammo noto'g'ri. Boisi shoxdor dubulg'alar rusumdan chiqib ketganligiga qariyb 2 ming yil bo'lyapti. Albatta, vikinglar qaroqchilik va bosqinchilik qilishardi. Biroq bu davrda yashagan boshqa xalqlar ham bu qilmishlardan xoli emasdi. Faqat farqi shundaki, bu borada vikinglarning omadi chopgan, qo'li baland edi xolos.

O'z uylarida ular ham qatron va hosilsiz Skandinaviya yerlaridan rizqlarini topish uchun yer shudgor qilishar, poda boqishar edi. Yoz oylarida esa ular o'sha davrning eng mohir va chapdast jangchi, Dengizchilariga aylanardilar.

Ularning kemalari shon-shuhratlarga burkangan, biroq biz ular to'g'risida faqat afsonalar orqaligina bilamiz: ularning bir necha kemasi bizning davrimizgacha saqlangan. Ulardan eng mashhuri Gokstaddagi (Norvegiya) yerto'ladan topilgan kemadir. Mazkur kemaning uzunligi 24 metr bo'lib, uning eshkagi 34 ta, hamda qizil va oq matolardan tikilgan yelkanlarq uchun ulkan machtasi bor.

VIKINGLAR QAYOKLARGA SUZISHGAN?

Shved vikinglari ko'proq o'z vatanlaridan janubga tomon suzishgan. Dastlab ular Boltiqdengizida teri, qullar, yog'och, hamda asal bilan savdo-nosotiq qilishgan. Keyinchalik esa katta daryolar orqali tobora yuqoriga suzib borishgan.

Ko'plab vikinglar Novgorod yoki Pskov kabi shaharlarda o'troq bo'lib qolib ketganlar. U yerlarda vikinglarni «rus» deb atashardi. Aynan ana shu vikinglar butun boshli Rusiya davlatiga, keyinchalik esa Rossiyaga nom berdilar. Ular o'z kemalarini janubga oquvchi daryolarga maxsus usullarda ko'tarib kelib tushirishar va bu daryolar orqali Qora dengizga va Kaspiy dengiziga chiqib o'z yo'llarida goh savdo qilib, goh bosqinchilik qilib yurishardi.

Ammo ularga boshqa hunarlar ham nasib qilgan edi. Ularning jangovar mahorati to'g'risidagi shov-shuvlar Vizantiya imperiyasiga ham, islom dunyosiga ham yaxshi ma'lum bo'lganidan mazkur mamlakatlar ularni harbiy sohalarga yollar edilar. Konstantinopolda imperatorni faqat vikinglardan tarkib topgan varyaglar gvardiyasi qo'riqlar edi. Talonchilik bo'ladimi, savdo-sotiq ishlarimi yoki urushmi, bundan qat'i nazar vikinglar o'z imkoniyatlarini hech qachon boy bermasdilar.

1066-yilda Angliyaning zabt etilishi vikinglarning Yevropadagi eng so'nggi ulug' zafari edi. Gersog Vilgelm rahnamoligidagi Shimoliy Fransiyada (Normandiyada) o'troq bo'lib qolgan normandiyali vikinglar lashkari Angliyaga bosib kirdi va uni zabt qildi. Normandlarning tili, urf-odatlari, davlatni boshqarishdagi tasavvurlari tez orada mahalliy an'analar bilan kirishib, Angliyaning o'rta asrlar sivilizatsiyasiga asos yaratdi.

SALB YURISHLARI NIMA?

XI—XIII asrlar Yevropa uchun gullab-yashnash va barqarorlik davri bo'lganligini yaxshi bilamiz. Biroq, shunday bo'lsada, ko'plab Yevropa qirollari kuchli amaldorlarning qarama-qarshiliklariga duch kelar, yoki qo'shni davlatlar bilan bo'ladigan o'zaro hududiy mojarolar domiga tortilar edi. 1070- yildan to 1120- yilga qadar Germaniyani muttasil o'zaro urushlar holdan toydirgan bo'lsa, Angliya va Fransiya ham Janubiy Fransiya hududida joylashgan Akvitaniya uchun to'xtovsiz janjallashar edi.

Yevropaning barcha qirollari, ritsarlari va hatto cherkov ruhoniylari ham yana bir o'ziga xos bosqinchilik urushlarining komiga tortilgan bo'lib, bu urushning nomi — Salb yurishlari edi. Bu urushlarda nasroniy askarlari musulmonlardan o'zlari uchun «Muqaddas tuproq» deb ataganlari, ya'ni Quddus shahri atrofidagi yerlarni (hozirgi Isroil va Iordaniya hududi) tortib olishga urinar edilar.

Salb yurishlari — o'rta asrlarga xos bo'lgan oliy ideallarning ochko'zlik va shafqatsizlik bilan qorishiq holdagi ko'rinishiga eng yaqqol dalil edi. Albatta, ko'plab jangchilar salb yurishlariga, Xristos yashab, vafot etgan zaminda nasroniy podsho hukmdor bo'lishi uchun qatnashar edi. Biroq bu urushlarda boshqa maqsadlar bilan ishtirok qiluvchilar ham bisyor edi: bu yurishlar ularga shon-shuhrat yoki boy o'lja olib kelardi. Ayrimlarni esa sarguzashtlarga ishqibozligi salbchilar safiga qo'shardi.

Nasroniylar lashkarlari o'z dushmanlari — musulmonlarga qarshi janglarda o'ta shafqatsizliklar ko'rsatib necha-necha bor o'zlarini sharmanda qilib, isnodga qo'yidilar. Natijada 1291- yili bu urushlar mag'lubiyatga uchrab salbchilar Yevropaga butunlay qaytib ketdilar.

PROTESTANTLAR DINI QANDLY PAYDO BO'LGAN?

XVI asr boshlarida «reformatsiya» deb nom olgan diniy inqilob boshlanib ketdi. Oqibatda protestantlar dinining ko'plab shohobchalari paydo bo'ldi. Har ikkala so'z — Reformatsiya ham Protestantizm ham — mohiyatiga ko'ra bir narsani — ya'ni bu diniy inqiloblarning asosiy maqsadi dinda o'zgartirishlar qilishga intilish ekanligini anglatadi, darhaqiqat keyinchalik katoliklar cherkovida bu o'zgartirishlar ro'yobga chiqdi.

Xo'sh, bu odamlar nimani o'zgartirishmoqchi va nima uchun o'zgartirishmoqchi edilar? Bu noroziliklarga sabablardan biri — ko'plab cherkov a'yonlarining turmush tarzi edi. Protestantlar, ruhoniylar uchun ma'naviy hayotdan ko'ra moddiy turmush tashvishlari muhimroq ekanligini ko'rib, bilib turardilar. Bulardan tashqari islohotchilar indulgensiyalarni, ya'ni kishilarni gunohlari uchun jazolashdan ozod qiluvchi rasmiy hujjatlarni sotishga qarshi chiqqan edilar. Ko'plari esa ibodatxonalarga qarashli katta-katta yer, hududlarga hasad qilishar edi, qolaversa Reformatsiyaga ko'mak beruvchi boshqa kuchlar ham bor edi. Ko'pgina kishilar reformator-islohotchilar qatoriga asosan siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra qo'shilgandilar. Tobora millatchilik o'sib borar, uning to'liqlarida esa milliy cherkovlarga ega bo'lish istagi ham paydo bo'la boshladi.

Yana bir sabablardan biri shunda ediki, bu davrga kelib bevosita cherkov ishlaridan boshqa masalalarga ham aralashaverganligi sababli Rim Papasining hukmronligi ham gumon bo'lib qolgan edi. Ruhoniy hazratlar o'rtasida o'zaro hokimiyat talashishlar boshlanib ketgach, juda katta kelishmovchilik va nizolar kelib chiqdi.

1517-yilda vijdotsizlarning indulgensiya sotishlari shu darajaga yetdiki, oqibatda bu hol Avliyo Avgustin ordeniga mansub nemis olimi Martin Lyuterning norozilik chiqishiga sabab bo'ldi. U cherkovdan haydaldi, dahriy deb e'lon qilindi, biroq u tomonidan bitilgan aqoidlar (doktrinalar) keng omma orasida tarqalib ketdi.

1530- yilda u o'zining Augsburg iqrori deb nomlangan, protestantlik dinining 21-moddasidan iborat asarini e'lon qildi. Oqibatda esa katoliklar va lyuteranlar batamom bir-birlaridan uzilib ketdilar. Protestant cherkovi asoslanadigan reformatorlik aqidalari turli ko'rinishlarda boshqa davlatlarda ham keng tarqaldi va qabul qilindi.

MARTISHL YUTER KIM?

Yevropada hayot va e'tiqod to'grisidagi yangi g'oyalar tarqala boshlagan chog'da ko'p kishilar katolik cherkovini isloh qilishni talab qilib chiqa boshladilar. Sababi ular katolik cherkovi tobora qudratli va ochko'z bo'lib bormoqda deb

hisoblardilar. Ularning fikricha cherkovning yana boshqa ayblaridan biri — cherkov uchun ruhoniyyat, ma'naviyat emas, balki bu foniyy dunyo tashvishlari, asosan esa boylik orttirish muhim bo'lib borayotganligida edi. Ruhoniy arboblarning o'zlarining do'stlariga, qarindosh urug'lariga cherkovdagi manfaatli mansablarni turli sovg'alar evaziga ehson qilib yuborardilar. Cherkov ruhoniylari Rim Papasi tomonidan qilingan gunohlarni avf etib yuboruvchi guvohnoma — indulgensiyalarni sotib ham boylik orttirishardi. Ahvol shu darajaga bordiki, istagan kishi bunday guvohnomalarni jahongashta savdogarlardan sotib olishi va gunohlardan forig' bo'lishi mumkin bo'lib qoldi.

Indulgensiyalarning sotilishiga birinchi bo'lib oshkora ravishda Vittenburglik ruhoniy Martin Lyuter (1483—1546) qarshi chiqdi. U inson o'z ruhini faqat Xudoga bo'lgan e'tiqodi va ishonchi orqaligina xalos qilishi mumkin, buni na Yerdagi xayrli ishlar bilan va na cherkov foydasiga xayru-ehson bilan amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblardi. U o'zining bu fikrida shu qadar sobit ediki, oqibatda 1517- yili u cherkov faoliyatidagi kamchiliklar birma bir ko'rsatilgan maxsus noma yozib, uni Vittenburgdagi ibodatxona darvozalariga mahkamlab qo'ydi.

Martin Lyuterning katolik cherkovini isloh qilish to'g'risidagi maqsadlari va g'oyalari protestantizmning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Lyuterning izdoshlari Rim Papasining hokimiyatini, shuningdek katolik cherkovining ko'plab qoidalarini inkor qilishdi. Ular me'moriy jihatdan juda sodda bo'lgan cherkov binolarini bunyod etishdi, ular asosiy e'tiborni ilohiy sir-sinoatlarga emas, balki Injilni o'rganishga va diniy ta'limlarga qaratishdi. Cherkov marosimlari davomida lotin tilidan voz kechishib, bu diniy marosim qaysi mamlakatda bo'ladigan bo'lsa o'sha mamlakat xalqi tilida amalga oshirilishiga, unda ishtirok etayotgan har bir kishi tilga olinayotgan ta'lim va pand nasihatlarining mazmunini tushuna olishlariga e'tibor berdilar.

Lyuter o'zicha, uning fosh etuvchi so'zlari cherkov ruhoniylari orasida o'zaro bahslarni keltirib chiqarishiga va bu oqibatda cherkovni isloh qilishga olib kelishiga ishongan edi. Biroq u dahriylikda ayblandi. Lyuter o'zining fosh etuvchi qarashlaridan voz kechmagach, Papa uni cherkovdan haydab yubordi. Biroq bu paytga kelib Lyuterning g'oyalari Germaniya va Shveysariyada o'z muxlislarini topgan edi. Dastlab uning izdoshlarini lyuteranlar deb atashdi, biroq 1529- yildan, ya'ni ulardan bir qismi Shpeyerda bo'lib o'tgan konferensiyada o'z ustozlarining badarga qilinishiga qarshi protest (norozilik) bildirishgandan so'ng ularni protestantlar deb atay boshladilar.

DJON KALVIN KIM?

Djon Kalvin XVI asrda Yevropaga yopirilib kirgan Reformatsiya deb nomlanuvchi diniy harakat rahbaridir. Mazkur harakat nasroniy dunyosini ikkiga — katoliklar va protestantlarga bo'lib yubordi.

Kalvin 1509- yil 10 iyulda Fransiyada tug'ildi. U lotin tili, falsafa va mantiqdan saboq olgach, yangi protestant diniga e'tiqod qo'ydi. O'zining diniy e'tiqodi tufayli u Fransiyaning tark etishiga majbur bo'ldi, va u 1536-yilda Shveysariyaga, aniqrog'i

Jenevaga jo‘nab ketdi. Muayyan qisqa davrni hisobga olmaganda, u o‘zining qolgan butun umrini o‘sha yerda o‘tkazdi.

Uning kuchli rahbarligi ostida Jeneva protestantizmning markaziga aylandi. Cherkov shahar qonunlarini chiqarar va kundalik hayotning barcha jabhalarini muvofiqlashtirar edi. Qonunlar o‘ta shafqatsiz edi. Jeneva aholisi tejamkor, mehnatsevar va jiddiy bo‘lishga majbur edi. Madhiyadan tashqari biror bir qo‘shiq va raqsni ijro etish man qilinardi. Bu qonunga bo‘ysinmaganlarni shafqatsiz jazolar kutardi.

Kalvinizm shafqatsiz din edi. Kalvinning fikricha inson tabiatan gunohkordir, u faqat Xudoning marhamati ila gunohlardan xalos bo‘lishi mumkin. Ammo bunday sharafiga juda kam kishilar, (Kalvin ularni sara odamlar deb atardi) musharraf bo‘ladilar. Va Xudo, deydi Calvin, allaqachon o‘zi kim bu sara odamlar safida bo‘lishini belgilab qo‘ygan, deydi. Bu g‘oya Kalvinning taqdir yozuvi, qismat to‘g‘risidagi ta’limoti edi.

Kalvin 1564- yil 27- mayda vafot etdi. Biroq bu paytga kelib uning g‘oyalari Jenevadan chiqib G‘arbiy Yevropaning juda katta qismiga tarqalib ketgan edi. XVII asrda Amerikaga jo‘nab ketgan Angliyalı puritanlar ham Kalvinchilar edi. Bugungi kunda ham presviterianlar va boshqa reformatorlik (islohotchilik) cherkovlari Djon Kalvinning diniy aqidalariga amal qiladilar.